



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

PAXTA TOZALASH KORXONASIDA MASHINALARINING ELEKTRODVIGATEL TEZLIGINI BOSHQARISH TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA ENERGIYA SARFINI TEJASH

t. f. f .d. (PhD) Ochilov Dilshod Muborakbekovich

Qarshi davlat texnika universiteti

Normurodov Davron Eshmurod o'g'li
1-bosqich magstir

Annotatsiya

Maqolada paxta tozalash korxonalarida paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalash agregatida sarflanadigan elektroenergiya miqdorini kamaytirish maqsadida paxta tozalash agregati uchun unda foydalaniladigan elektrodvigatellarning quvvatlari agregatning bajaradigan vazifasi va ishchi organlaring xususiyatlaridan kelib chiqqan holdatanlash imkoniyatlari keltirilgan.

Аннотация

В статье приведен подбор мощности электродвигателей, используемых в хлопкоочистительном агрегате, который подбирается исходя из функций и характеристик агрегата, с целью снижения энергопотребления при очистке хлопка от крупных и мелких сорных примесей на хлопкоочистительных предприятиях.

Abstract

The article presents the selection of power of electric motors used in a cotton ginning unit, selected based on the functions of the unit and characteristics. characteristics of working bodies in order to reduce the energy consumption of a cotton cleaning unit from small and large impurities at cotton ginning enterprises.

Kalit so‘zlar: paxta xomashyosi, paxta tozalash mashinasi, ishchi organ, elektrodvigatel, quvvat, xarajat, tozalash, tiqilib qolishi.



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

Ключевые слова: хлопок-сырец, хлопкоочистительная машина, рабочий орган, электродвигатель, мощность, стоимость, очистка, застяжение.

Key words: raw cotton, cotton gin, working body, electric motor, power, cost, cleaning, jamming.

Kirish

Paxta tozalash sanoati - yengil sanoatiing paxtaga dastlabki ishlov beruvchi tarmog‘i. Mazkur tarmoq to‘qimachilik, yog‘moy, kimyo sanoati tarmoqdariga xom ashyo yetkazib beradi. Paxta tolasi va chigit Paxta tozalash sanoatining asosiy mahsulotlari hisoblanadi. O‘zbekistonda dastlabki paxta tozalash korxonasi Toshkentda 1874-yilda qurilgan Paxta tozalash mashinalarining asosiy ishchi organlari aylanma ishchi organlar bo‘lib, ularni harakatga keltirishda elektrosvigatellaridan foydalaniladi. Paxta tozalash mashinalarining ishchi organlarida elektrosvigatellarning maqbul quvvatlarini tanlash mashinaning ish unumdoorligiga, tozalash samaradorligiga, ishchi organlarning uzoq muddatxizmat qilishlariga va xokazo ko’rsatkichlarga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Ishchi organlarni harakatga keltirishda ba’zi elektrosvigatellarning noo’rin tanlanishi hisobiga elektr energiyasining ko’p xarajat qilinishi, ba’zida esa ishchi organlarda paxta xomashyosining tifilib qolishi, natijada ularning ish muddatning kamayishiga va korxona xarajatlarining oshishiga olib keladi [1].

Usullar. Hozirgi kunda paxta-to‘qimachilik klasterlari tizimidagi paxta tozalash korxonalarida paxtani mayda iflosliklardan tozalash uchun 1XK paxta tozalash mashinasi, paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalash uchun UXK agregati qo’llanilib, ularda qo’llaniladigan elektrosvigatellarning umumiyligi quvvati juda yuqori. Yuqorida ta’kidlanganidek, elektrosvigatellarning maqbul quvvatga ega bo’lgan turlarini paxta tozalash mashinalarida qo’llash - ularning bajaradigan vazifalari, shuningdek, xususiyatlaridan kelib chiqib tanlashmaqsadga muvofiqdir [2, 3].

UXK paxta tozalash agregati to’rtta sekxiyadan iborat bo‘lib, paxta xomashyosini mayda va yirik iflosliklardan tozalashga mo’ljallangan. Birinchi sekxiyada to’rtta



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

elektrodvigatel mavjud bo'lib, ularning har birining quvvati 4kVtni tashkil qilib, uning umumiy quvvati 16kVtni tashkil etadi. Ikkinci seksiya paxta xomashyosini mayda iflosliklardan tozalash uchun mo'ljallangan bo'lib, uning umumiy quvvati 22,6 kVtni dan iborat (1-rasm).

Natija. Taklif etilayotgan konstruksiyadagi UXK agregatining umumiy ko'rinishi 2- rasmda, paxta xomashyosini mayda va yirik iflosliklardan tozalash seksiylarining, ya'ni, 3- rasmda seriyadagi tozalagichning va 4-rasmda taklif etilayotgan takomillashtirilgan energotejamkor konstruksiyadagi tozalagichning kinematik sxemasi keltirilgan.

3- rasmda seriyadagi tozalagichning kinematik sxemasi keltirilgan bo'lib, to'rtta qoziqli baraban uchun ikkita 4 kVtli (aylanish chastotasi 960 ayl/min), ikkita arrachali baraban uchun bitta 5,5 kVtli (aylanish chastotasi 960 ayl/min) va chiqindi shnogi uchun bitta 1,1 kVtli (aylanish chastotasi 1480 ayl/min) elektrodvigateldan foydalanildi, umumiy quvvati 22,6 kVt ni tashkil etadi.

Quyidagi 4-rasmda taklif etilayotgan takomillashtirilgan energotejamkor konstruksiyadagi tozalagichda ta'minlagich uchun bitta 1,1 kVtli (aylanish chastotasi 960 ayl/min), to'rtta qoziqli baraban va ikkita cho'tkali baraban uchun bitta 7,5 kVtli (aylanish chastotasi 960 ayl/min), ikkita arrachali baraban uchun bitta 5,5 kVtli (aylanish chastotasi 960 ayl/min) va chiqindi shnogi uchun bitta 1,1 kVtli (aylanish chastotasi 1480 ayl/min) elektrodvigateldan foydalanildi. Taklif etilayotgan takomillashtirilgan energotejamkor konstruksiyadagi tozalagichda esa energiya sarfi 19,2 kVt ni tashkil etadi. Seriyadagi tozalagichda qo'llaniladigan elektrodvigatellarning sarflaydigan umumiy quvvatidan takomillashtirilgan energotejamkor konstruksiyadagi tozalagichda sarflaydigan umumiy quvvati orasidagi farq bitta tozalash seksiyasi uchun 3,4 kVtni tashkil etadi. Agar UXK rusumli tozalagich uchta seksiyadan iborat bo'lsa, unda sarflanadigan umumiy quvvat 10,2 kVtnitashkil etadi. Agar bitta paxta tozalash korxonasi bir sutkada u 244,8 kVtni tashkil etsa, paxta tozalash korxonasi o'rta hisobda bir mavsumda 6 oy (o'rtacha 180 kun) ishlasa, unda tejadaligan elektroenergiya 44064 kVtni, ikkita parallel ishlaydigan tozalash agregati uchun esa 88128 kVtnitashkil etadi.



E CONF SERIES




International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada


Website: econfseries.com

7th May, 2025




1-2-3-seksiyalar paxta xomashyosi tarkibidagi yirik iflosliklarni tozalash uchun mo’ljallangan, 4-seksiya paxtani mayda ifloslikdan tozalash uchun mo’ljallangan

1-rasm. UXK rusumli paxta tozalash agregati sxemasi



2-rasm. Taklif etilayotgan UXK rusumli paxta tozalash agregati sxemasi



3-rasm. Seriyadagi tozalagichning birinchi seksiyasi



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

4- rasm. Taklif etilayotgan energotejamkor konstruksiyadagi tozalagichning birinchiseksiysi



5-rasm. Seriyadagi tozalagichning yon tomondan ko‘rinishi



5- rasm. Taklif etilayotgan energotejamkor konstruksiyadagi tozalagichning yon tomondanko‘rinishi



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

Xulosa

Taklif etilayotgan konstruksiyadagi paxta xomashyosini mayda va yirik iflosliklardan tozalash UXK aggregatida tozalagichning bajaradigan vazifasi va uning xususiyatalridan kelib chiqqan holda sarflanadaigan elektroenergiya quvatini sarfini kamaytirishga erishildi. Unga ko'ra takomillashtirilgan konstruksiyadagi energotejamkor tozalash aggregatining bitta tozalash seksiyasida sarflanadigan elektr enegiyasining miqdori seriyadagi tozalash aggregatining bitta tozalash seksiyasida sarflanadigan elektr energiyasining miqdoridan 3,4 kVt kamligi ko'rsatdi. Agar bitta paxta tozalash korxonasi bir sutkada u 244,8 kVtni tashkil etsa, paxta tozalash korxonasi o'rta hisobda bir mavsumda 6 oy (o'rtacha 180 kun) ishlasa, unda tejadaligan elektroenergiya 44064 kVtni, ikkita parallel ishlaydigan tozalash aggregati uchun esa 88128 kVtni tashkil etadi.

ADABIYOTLAR

1. F.B.Omonov, R.F.Yunusov, V.V.Dyachkov "Paxtani dastlabki ishlash bo'yicha spravichnik". "Voris-nashriyoti" Toshkent-2008 yil. 11-16 betlar.
2. UXK rusumli paxta tozalash aggregatining pasporti.
3. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti Djurayev Anvar. Kasimov Abror Aliyorovich. Rosulov Ruzimurad Xasanovich Scientific Journal of Mechanics and Technology ISSN 2181-158X, volume 5, Issue 3, 2024
4. R.X. Rosulov. Paxtaning dastdabki ko'rsatkichlariga asoslangan texnologik mashinalarning boshqariladigan tozalash tizimini ishlab chiqish. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2023, 56 bet